


V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, 29 497 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 20 010 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

2024- yil 1- iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 15 081 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, ularning ulushi 75,4 % ni tashkil etdi.

**2024- yil 1- iyul holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (31,8 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,3 % ni tashkil etdi.


**2024- yil 1- iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10 733,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (30,1 %), transport xizmatlariga (18,6 %), avtotransport xizmatlariga (17,4 %), moliyaviy xizmatlariga (19,1 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2024- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2024- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1 968,0 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2024- yil yanvar-mart) oyiga nisbatan xizmatlar hajmi 5 414,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

Joriy yilning yanvar-mart oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (1 678,6 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlari (1034,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlar (919,5 mlrd. so'mga), hamda avtotransport xizmatlari (841,5 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2023- yilning mos davrida savdo xizmatlar – 3 231,1 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 2053,7 mlrd. so'm, transport xizmatlari 2000,1 mlrd. so'm va aloqa va ta'lim sohasidagi xizmatlar – 549,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**2024- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
Xizmatlar – jami	10 733,8	112,3
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	538,3	114,8
moliyaviy xizmatlar	2 053,7	124,7
transport xizmatlari	2 000,1	107,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 865,9	109,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	330,1	105,0
savdo xizmatlari	3 231,1	109,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	250,0	109,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	549,5	120,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	168,3	113,9
ijara xizmatlari	240,5	103,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	420,0	108,1
shaxsiy xizmatlar	407,1	108,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	139,5	110,3
boshqa xizmatlar	405,6	105,4

Eng yuqori oʻsish surʼatlari moliyaviy xizmatlar 124,7 %, taʼlim sohasidagi xizmatlar 120,3 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 114,8 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq oʻsish surʼatlari ijara xizmatlari 103,3 %, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar 105,0 % hamda boshqa xizmatlar 105,4 % da kuzatildi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2024- yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 30,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlari 19,1 %, transport xizmatlari 18,6 % egallaydi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 3 231,1 mlrd. soʻmga teng boʻldi. Koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,1 % ni tashkil etdi.

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 475,8 mlrd. soʻmga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan isteʼmol talabi va savdo aylanmasi oʻsmoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



ulgurji savdo xizmatlari (*avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari*) 11,1 %



atomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar 5,5 %



chakana savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari 83,4 %

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo boʻyicha xizmatlar katta salmoqqa ega.


2024- yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 83,4 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo boʻyicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,1 % ga

yetdi. Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




2024- yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 538,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sishi 83,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 92,8 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 92,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,7 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 053,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 124,7 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (91,9 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2024- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 549,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 120,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 330,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,1 % ga yetdi.


2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	10 733,8	112,3
Qarshi sh.	3106,5	119,9
Shahrisabz sh.	528,5	111,4
G'uzor	429,1	110,3
Dehqonobod	313,4	109,8
Qamashi	572,7	107,7
Qarshi	648,5	110,9
Koson	695,4	110,0
Kitob	684,7	110,0
Mirishkor	468,6	108,0
Muborak	676,8	109,7
Nishon	393,7	109,6
Kasbi	467,5	107,0
Ko'kdala	172,7	109,0
Chiroqchi	399,1	109,8
Shahrisabz	619,7	110,2
Yakkabog'	556,8	107,9

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (3 106,5 mlrd. so'm), Koson tumani (695,4 mlrd so'm), Kitob (684,7 mlrd. so'm), Muborak tuman (676,8 mlrd. so'm) va Qarshi tuman (648,5 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Chiroqchi (399,1 mlrd. so'm), Nishon (393,7 mlrd. so'm), Dehqonobod tumani (313,4 mlrd. so'm) va Ko'kdala (172,7 mlrd. so'm) da kuzatilmoqda.


2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahar – 119,9 %, Shahrisabz shahar – 111,4 %, Qarshi tumani tumani – 110,9 % va G'uzor tumani 110,3 % kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda Respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**2024- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**




Qarshi sh.	Shahrisabz sh.	G'uzor	Dehqonobod
Qamashi	Qarshi	Koson	Kitob
Mirishkor	Muborak	Nishon	Kasbi
Ko'kdala	Chiroqchi	Shahrisabz	Yakkabog'

Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (28,9 %), Koson tumani (6,5 %), Kitob tumani (6,4 %) va Muborak (6,3 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Ko'kdala (1,7 %), Dehqonobod tumani (2,9 %) va Chiroqchi (3,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**
(2024- yil yanvar-iyun oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi kuzatilmoqda. 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan hajm 495,0 ming so'mga oshib 3 000,4 ming so'mga teng bo'ldi.

Tumanlar orasida yuqori ko'rsatkichga ega Qarshi shahrida 10 466,8 ming so'm, Muborak tumanida 7214,9 ming so'mni tashkil etti.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (117,3 %) Shahrisabz shahrida (109,4 %), va Shahrisabz tumanida (108,3 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Kasbi (104,7 %), Qamashi (105,4 %), Yakkabog' (105,6 %) va Mirishkor (105,7 %) tumanlarida qayd etildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Qarshi sh.	524,3 mlrd. so'm
Shahrisabz sh.	93,8 mlrd. so'm
G'uzor	125,5 mlrd. so'm
Dehqonobod	80,4 mlrd. so'm
Qamashi	229,2 mlrd. so'm
Qarshi	225,5 mlrd. so'm
Koson	301,2 mlrd. so'm
Kitob	292,2 mlrd. so'm
Mirishkor	165,8 mlrd. so'm
Muborak	232,9 mlrd. so'm
Nishon	108,6 mlrd. so'm
Kasbi	209,0 mlrd. so'm
Ko'kdala	51,5 mlrd. so'm
Chiroqchi	172,0 mlrd. so'm
Shahrisabz	182,9 mlrd. so'm
Yakkabog'	236,3 mlrd. so'm

Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (524,3 mlrd. so'm), Koson (301,2 mlrd. so'm) va Kitob (292,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala (51,5 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 3231,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 % ni tashkil etdi.


2024- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Qarshi (115,9 %), Chiroqchi (113,3 %) va Koson tumanlarida (111,4 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Yakkabog' tumanida (101,9%) va G'uzor tumanida (102,2 %) qayd etildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Qarshi shahri (16,2 %) va Koson (9,3 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Dehqonobod tumanida (2,5 %) Ko'kdala (1,6 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 2 000,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (372,9 mlrd. so'm) va Koson tumanida (169,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Ko'kdala tumanida (36,3 mlrd. so'm) qayd etildi.